

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидилов Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Ijtimoiy xizmatlar rivojlanishining inson kapitaliga ta'siri

Rajabov O'tkir Do'snayeich

Влияние развития социальных услуг на человеческий капитал

Ражабов Уткир Дуснаевич

The impact of social services development on human capital

Rajabov Utkir Dusnayeich

Received: April 24, 2025 Revised: April 28, 2025 ■ Accepted: April 29, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada inson kapitalining insonda mujassamlashgan aqliy va jismoniy qobiliyat sifatidagi mazmuni, uning rivojlanishida ijtimoiy soha majmui ta'lim, tibbiyot, mehnat va uy-joy sharoitlarining ahamiyati, ijtimoiy sohaga sarflangan vaqt va mablag' inson kapitaliga sarflangan investitsiya ekanligi, bilimli, tajribali va sog'lom kishilar ishlashidan hamisha jamiyat manfaatdor bo'lganligi, buning uchun ijtimoiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish kerakligi ko'rib chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** inson kapitali, aqliy va jismoniy qobiliyat, ishchi kuchining sifat jihati, shakllanish, ta'lim, tibbiyot, mehnat va uy-joy sharoitlari, ijtimoiy soha, investitsiyalar, takomillashtirish.
- **Аннотация:** В статье раскрывается содержание человеческого капитала в качестве умственных и физических способностей, воплощенных в человеке, значение комплекса социальной сферы в развитии образования, медицины, условий труда и жилья, а также то, что время и средства, вложенные в социальную сферу, являются вложениями в человеческий капитал. Считалось, что общество всегда было заинтересовано в том, чтобы работали образованные, опытные и здоровые люди, для этого необходимо углублять реформы в социальной сфере.
- **Ключевые слова:** человеческий капитал, умственные и физические способности, качественный аспект рабочей силы, формирование, образование, медицина, условия труда и жилья, социальная сфера, инвестиции, совершенствование.
- **Abstract:** The article reveals the content of human capital as mental and physical abilities embodied in a person, the importance of the complex of the social sphere in the development of education, medicine, working conditions and housing, as well as the fact that time and funds invested in the social sphere are investments into human capital. It was believed that society has always been interested in educated, experienced and healthy people to work, for this it is necessary to deepen reforms in the social sphere.
- **Key words:** human capital, mental and physical abilities, qualitative aspect of the labor force, formation, education, medicine, working conditions and housing, social sphere, investment, improvement.

KIRISH

Iqtisodiyotda kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar sharoitida har qanday davlat uchun eng katta boylik bu mamlakatda

yashayotgan insonlar, ularning aqliy va jismoniy imkoniyatidir. Insonning mehnat qila olish qobiliyati, ma'lumoti, tajribasi, uddaburonligi, ishbilarmonligi, jismoniy tayyorgarligi va aqliy sifat ko'rsatkichlari majmui inson kapitali sifatida ta'riflanadi. Inson kapitali u insonda mujassamlashgan salohiyatning

muhim o'lchovi u ortirilgan tajriba, bilim va iste'dodni o'zida aks ettiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish hozirgi zamonaviy sharoitda tor ma'noda-korxona va muassasalar doirasida ahamiyat kasb etib qolmay, balki jamiyatning asosiy mazmuniga aylanmoqda. Cheksiz imkoniyatlarga qodir inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiyotning joriy va istiqboldagi o'sishiga xizmat qilishi o'z isbotini topmoqda.

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri barkamol avlodni shakllantirish, ularning ta'lim olishi va ishlashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida to'xtalib, "Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamoaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak" degan g'oyalarining zahirida inson kapitalini o'stirishdek e'zgu-niyat mujassamlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. [1]

Jamiyat taraqqiyoti tarixan shundan dalolat beradiki, sog'lom, bilimdon va kasbiy jihatdan tayyorgarligi bo'lgan fuqarolarning ishlashidan hamisha jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan. Shu jihatdan inson kapitali tushunchasi bir tomondan uni rivojlantirishga bo'lgan talabni aniqlab beradi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda inson kapitaliga oid masalalar qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan va hilma-xil ta'riflar berilgan. Xususan, "Inson kapitali" tushunchasiga amerikalik olimlar G.Bekker [3] va T. Shuls [4] tomonidan asoslangan inson kapitali kontsepsiyasidan foydalangan holda ta'riflangan. Ular inson kapitalini mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan hamda shaxsning o'zi va butun jamiyat uchun daromad manbai bo'lgan tug'ma qobiliyatlar, orttirilgan ko'nikmalar, bilimlar va motivatsiyalar yig'indisi sifatida ta'riflashgan.

Rossiyalik olimlardan Parshina N.B. Inson kapitalini insonda mujassamlashtirilgan aqliy va jismoniy qobiliyat sifatida tushuntirgan. [5] Medvedeva O.V. Inson kapitali - bu shaxsning tug'ma qobiliyatlari va orttirilgan ko'nikmalari, uning jismoniy salomatligi va to'plangan bilimlarining kombinatsiyasi bo'lib,

egasiga ularni kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash natijasida ma'lum daromad olish imkonini beradi deb ta'riflaydi. [6] Rus olimi E.A.Yarushkina va A.A.Kobelevlarning fikricha, inson kapitali tushunchasini ham tor, ham keng ma'noda ko'rib chiqish mumkin: tor ma'noda inson kapitalining shakllaridan biri bu ta'limdir. Chunki u kelajakdagi daromad va qoniqish manbaidir. Keng ma'noda inson kapitali investitsiyalash va inson kapitalini jamg'arish natijasida shakllangan sog'lik, bilim va qobiliyatlar yig'indisidir. [7]

O'zbekistonlik olimlardan A. O'lmasov va A.Vahabovlar ta'rifiga ko'ra, "Inson kapitali -bu kishilarning hayotiy ne'matlari hisoblangan tovar va xizmatlarni yaratishga qodir bo'lgan aql-idroqi va kuch quvvatidir, uni yaratish xarajat talab qilgani uchun u kapitalga tenglashtiriladi".[8] Q.X.Abdurahmonov "Inson kapitali" kategoriyasining mohiyatini tor ma'noda -bu insonning intellekti, sog'lig'i, bilimi, sifatli va unumli mehnati hamda uning turmush sifatidir. Keng ma'nodagi inson kapitali -bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimlari qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir deya tushuntirgan. [9]

■ TADVIQOT METODOLOGIYASI

Inson omilini rivojlantirish, malakali, teran fikrlaydigan sog'lom kadrlar tayyorlash masalalari, ya'ni ijodkor intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalab etishtirish, aqliy va jismoniy qobiliyatli insonlarni shakllantirish jarayonida miqdor va sifat, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, mantiqiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlardan foydalanildi.

■ TAHLILLAR VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va resurslardan tejimli foydalanish, milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash kabi qator tadbirlar borki, bular yuqori sifatli inson resursiga bog'liqligi namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodchilarning fikricha, milliy boylikning shakllanishida inson kapitalining xissasi rivojlangan mamlakatlarda 75 foizni, oddiy kapitalniki 19-20 foizni, tabiiy resurslarniki faqatgina 2-5 foizni tashkil qilgan ekan.

Alohida korxona yoki umum jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi birlamchi omil-inson va uning salohiyati ekanligi, mehnat intizomiga rioya qilish, ish vaqtidan unumli foydalanish, fan-texnika yutuqlarini keng joriy etish va jamiyatni samarali boshqarish insoniy kapitalning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Jamiyatda ishga yaroqli ishchilar soni – bu miqdoran o'lchamdir. Ularning sifat jihatida esa – bu ishlovchilarning malaka mahorati, bilimi, tajribasidan iborat. Insondan hech ajratib bo'lmaydigan boylik-bu uning ish kuchidir. Bu uning jismida mujassasmlashgan qobiliyatidir. Bu qobiliyat ortib, yangi-yangi qiymatlar yaratadi. Shunga ko'ra uni inson kapitali deb atashadi. [10]

Inson asosiy ishlab chiqarish kuchi uning mehnat qobiliyati

bo'lmasa, jamiyatda hech qanday iqtisodiy o'sish bo'lishi mumkin emas.

Ma'lumki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan iqtisodiy resurslarning harakatiga va ulardan samarali foydalanishga bog'liq. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida shunday resurslardan biri inson kapitali hisoblanib, u bir qancha shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

O'tgan XX asrda iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda fan-texnika taraqqiyoti va yangi shakllangan qarashlar zahirida insonga munosabat tubdan o'zgardi va inson iqtisodiy samaradolika erishishning muhim sharti sifatida e'tirof etilib, uni rivojlantirish bilan bog'liq qator vazifalar hal qilish kerakligi belgilab olindi.

Bu paytda inson iqtisodiy munosabatlar tizimida kapital sifatida qabul qilinib, "oddiy" kapital singari korxonaga, oilasiga qolaversa butun jamiyatga foyda keltirishi o'z tasdig'ini topdi.

Yangi sharoitda inson salohiyatining o'sishiga erishmay turib, iqtisodiy rivojlanib bo'lmagligi ko'plab ishbilarmon va boshqaruvchilar tomonidan tan olindi. Xususan, avtomobil sanoatidagi mashhur amerikalik tadbirkor G.Ford korxona samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ishchi kuchi salohiyatiga e'tibor qaratgan va yuqori natijalarga erishgan. G.Ford ishchilarning kasb-mahoratini oshirish bilan birga, ularning ishlashi va dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga hamda ishchilarning ishga bo'lgan

munosabatini o'zgartirishga harakat qilgan.

Keyinchalik inson kapitalini boshqarish va takomillashtirish masalalari keng yoyilib boshqa korxonalarda ham katta qiziqish o'yg'ota boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab korxonalarda ishchi xodimlar sotsiologlar, psixologlar va iqtisodchilar tomonidan maxsus kuzatilib borildi.

Mashhur ingliz iqtisodchisi U.Petti "Mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasi" ekanligini ta'riflagan. Bugungi kunda mehnatning mazmuni va amalga oshirishida insonning birinchi o'rinda turishini real hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Mehnat inson hayotining va jamiyat boyligining manbai birinchi va asosiy sharti hisoblanadi. Mehnatning mazmuni insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi sifatida har tomonlama rivojlantirish muammosini hal qilishni talab qiladi. Bu mehnat samaradoligining oshirishiga va mehnat qilish qobiliyatining faollashuviga xizmat qiladi.

Inson shaxsini rivojlantirish, jismoniy va aqliy qobiliyatini shakllantirish natijasida mehnatga layoqatli, malakali ishchi kuchi vujudga keladi. Biroq uning bilimi, ko'nikmasi,

mahorati, salomatligi, harakatchanligi faoliyat muddatlari bilan chegaralangan vaqt davomida iqtisodiy omillar sifatida ahamiyatlidir. Chunki "oddiy" kapital kabi inson kapitali ham jismonan batamom tugamay turib, fan-texnika taraqqiyoti sur'atlarining jadallashuvi, mavjud bilimlar, ko'nikmalar, malaka ko'rsatkichlarining eskirishi hamda vaqtincha sog'lig'ini yo'qotishi munosabati bilan ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin. [11]

Inson kapitalining yuqori darajada rivojlanishi va kelgusi istiqboli mamlakatdagi ijtimoiy sohaning holati va samarasi bilan uzviy bog'liq. Inson kapitaliga xos sifat ko'rsatkichlarining insonda rivojlanishi ijtimoiy sohaning tarkibiy qismi bo'lmish ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, uy-joy sharoitlari, mehnat sharoitlari, inson huquqlari va madaniy-maishiy xizmatlardan samarali foydalanish darajasiga hamda ovqatlanish tarkibi va miqdoriga bog'liq. Inson kapitali tushunchasi ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlab beradi. Moddiy va ijtimoiy sohaning o'zaro aloqalari markazida inson turadi.

Ijtimoiy soha mohiyatan insonning kamol topib rivojlanishiga va iqtisodiy munosabatlarda ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mehnatning mazmuni va shart-sharoiti, yashash muhiti, bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish bilan uzviy bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Shu bois ham iqtisodiyotdagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qarash lozim.

Iqtisodiy munosabatlar tizimida har bir mehnat turi aniq bir mahsulotni yoki uning ba'zi bir qismini yaratishga qaratiladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishda xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri insonga uning farovonligiga qaratiladi.

Iqtisodiyotdagi keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlar "Insoniy kapital" nazariyasining paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni rivojlantiruvchi ijtimoiy soha alohida iqtisodiy tarmoq sifatida o'rganila boshladi. Jumladan, ijtimoiy soha iqtisodiyoti ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning 50-60 yillaridagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni bog'lash uchun muvaffaqiyatli harakat qilgan T.Parsons va N.Smelser sotsiolog-olimlar nomlari bilan bevosita bog'liqdir. [12]

Jamiyat taraqqiyoti tarixan shundan dalolat beradiki, madaniyatli, sog'lom, bilimdon, kasbiy jihatdan tayyorgarligi bo'lgan fuqarolarning ishlashidan hamisha jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan. Shuning uchun ham insonning rivojlanishida ustun darajada ijtimoiy xizmatlarga e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy sohaga sarflangan vaqt va mablag' inson kapitaliga sarflangan investitsiyalardir. Investitsiyalar natijasida shakllangan bilimlar va ko'nikmalar insonning jismoniy, aqliy va ruhiy sifatleri hamda qobiliyatlarini ifodalaydi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar negizida shaxs, davlat va umumjamiyat manfaati yotadi. Inson kapitaliga sarflangan

investitsiyalar hozirgi vaqtda iqtisodiyot uchun eng samarali va tez o'zini qoplaydigan investitsiya hisoblanadi.

Inson kapitaliga qilinadigan sarf strategik nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, eng foyda keltiruvchi va eng ma'qbul yo'l hisoblanadi. Masalan, iqtisodchilarning ko'rsatishicha, ta'lim tizimi uchun sarflangan bir dollar investitsiya 3,5 barobar ko'p samara beradi. [13]

Davlat tomonidan inson kapitaliga e'tibor qaratilishi mehnat unumdorligining oshishiga va yuqori iqtisodiy rivojlanishga erishishga olib keladi. Qaysiki, mamlakatda inson kapitalining ahamiyati pasaysa va aholi qambag'allashsa o'sha davlat rivojlanishdan orqada qoladi. Ushbuni hisobga olgan holda mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijtimoiy sohani moliyalashtirish mamlakatimizda e'tibordan chetda qolmadi va uzluksiz o'sib borish tendensiyalariga erishildi (1-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat berilishi, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltirishini, bizda esa bu ko'rsatkich 4 barobarni tashkil etayotganligi sababli, kelgusida inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart"ligi haqida vazifa qo'ydi. [2]

Aholining nochor qatlamini qo'llab-quvvatlash, ta'lim va tibbiy yordam ko'rsatish xajmining kengayishi, uy-joy bilan ta'minlash, yashashi va ishlashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonda inson kapitalini shakllantirish vazifalari jahon tajribalaridan tashqari mutlaqo yangicha "inson - jamiyat - davlat" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-sonli "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan.

Mahalla instituti dunyoda o'xshashi bo'lmagan va aholiga eng yaqin ijtimoiy tuzilma, aholini jipslashtiruvchi, o'zini-o'zi boshqaruvchi organ sifatida o'z ishini tizimli yuritmoqda.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibining o'zgarish dinamikasi [14]

INDIKATOR NOMI	2010 YIL	2015 YIL	2019 YIL	2023 YIL
Ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash xarajatlari (mld.so'm)	7835,9	21316,9	63542,3	122 348,70
Shundan				
Ta'lim (mld.so'm)	4464,1	12162,2	33536,1	61 220,30
Sog'liqni saqlash (mld.so'm)	1716,5	5218,5	14977,4	31 066,60

Mahalla - Sharq tamadduni, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzi, tafakkuri va qadriyatlariga xos bo'lgan jamiyat hayotini tashkil etadigan an'anaviy ijtimoiy institutdir. Mahalla instituti aholini ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy va ruhiy himoyalovchi va rivojlantiruvchi muassasaga aylangan. Insonning ijtimoiy muhitda kamol topishi azaldan ma'lum. Aynan ishsiz va hunarsiz yoshlarni ro'yxatga olish va kasbga yo'naltirish tadbirlari ham mahalla instituti orqali amalga oshirilmoqda. Mahallaning jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish, xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli ko'pri bo'lishini amalda ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi, aholi murojaatlari va muammolarini aniqlash hamda hal etishda "Mahalla - sektor - xalq qabulxonasi - mahalla" prinsipi asosida hamkorlik tizimi joriy etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va yuksak taraqqiyotni belgilovchi kuch sifatida e'tirof etilayotgan ekan, mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish va iqtisodiyotni tubdan yangilash sharoitida aholi uchun munosib turmush tarzini yaratish va tafakkurini o'zgartirishda, inson kapitali va uning o'sishi bugungi kun tartibidan joy olishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy majmua faoliyatini takomillashtirish va aholi farovonligiga moslashtirishda quyidagi takliflarni keltirish mumkin: birinchidan, yosh avlodning kasb va mutaxassislik tanlashida, ularning qiziqishi va qobiliyatini hisobga oluvchi hamda shu asosida kasbga yo'naltiruvchi tizimni yaratish kerak; ikkinchidan,

ta'lim muassasalarida raqobatchilik muhitini kengaytirib borish, davlat ta'lim muassasalari qatorida nodavlat ta'lim muassasalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; uchinchidan, sog'lom avlod shakllanishiga xizmat qiluvchi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini ommaviylashtirish; to'rtinchidan, alohida iqtidorga ega va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yoshlarning ta'lim olishlari uchun maksimal shart-sharoitlarni yaratish lozim; beshinchidan, inson kapitalini investitsiyalashda mintaqalarning xususiyatlari, aholining demografik holati, joylashuvi va yirik shaharlardan uzoq yaqinligi kabi mezonlarga asoslanish kerak.

Inson kapitalini rivojlantirish birdaniga amalga oshiriladigan jarayon emas. Unga vaqt, mablag' va davlat tomonidan boshqariladigan tarkib tadbiq etilishi hamda ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Rajabov O'tkir Do'snayeich Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti (DSc).** / **Ражабов Уткир Дуснайевич доцент (DSc) Денауского института предпринимательства и педагогики.** / **Rajabov Utkir Dusnayeich, Associate Professor (DSc) of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.**

► udrajabov@mail.ru

■ <https://orcid.org/0000-0002-4456-4268>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi //Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 30 dekabr, №276 (7778).
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (<https://president.uz/uz/lists/view/2228>) 28.12.2018 y.
- [3]. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории:

- Пер. с англ./ Сост., науч. ред., пос. Р.И. Капелюшников; предисл. М.И. Левин - М: ГУ ВШЭ, 2003. - 672 с.
- [4]. Schultz T.P. Investment in Human Capital // The American Economic Review. March 1961, №1. p.70.
- [5]. Паршина Н.В. Человеческий капитал: сущность, содержание, особенности // Мир современной науки. - 2013, № 3. - С. 4.
- [6]. Медведева О.В. Человеческий капитал: понятие, структура и основные характеристики // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №7 (41), 2019.
- [7]. Ярушкина Е.А., Кобелева А.А. Человеческий капитал: сущность и роль в повышении эффективности организации // Экономическая политика и хозяйственная практика. Научный вестник ЮИМ №1 2018
- [8]. O'lmasov A., Vahabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU. - T.: Iqtisod va moliya, 2014. - 226 b.
- [9]. Abdurahmonov Q.X. tahriri ostida. Inson taraqqiyoti. Darslik - T.: Iqtisodiyot, 2012. - 542 b. 81-82 b.
- [10]. Jumayev Ch. Safarov N. Iqtisodiyot nazariyasi - Toshkent.: "Tafakkur", 2009. - b. 28.
- [11]. Yo'ldosheva U. Inson kapitalini boshqarishga investitsiyaviy yondashuv .-Toshkent.: // Bozor pul va kredit. 2004. -№11. - b. 35.
- [12]. Saidov K.S, Siytmuratov R.A. va boshqalar Sotsial iqtisodiyot -Toshkent.: "O'zbekiston", 2006. -B. 41.
- [13]. Umarov U. Iqtisodiyot nazariyasi - T.: Me'ros. 2004. -B. 67.
- [14]. <https://www.imv.uz/oz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-2023>